

Surxondaryoda Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi ko'tarinkilik bilan nishonlanmoqda



Surxondaryoda Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi ko'tarinkilik bilan nishonlanmoqda

Bugun Termiz shahridagi Alisher Navoiy haykali bo'y ko'rsatib turgan maydon erta tongdan davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, professor-o'qituvchilar, yozuvchilar, shoirlar, talaba va o'quvchilar bilan gavjum bo'ldi.

Bu yerda buyuk mutafakkir tavalludining 582 yilligi munosabati bilan tadbir o'tkazildi. Unda Hazrat Navoiyning hayoti, boy madaniy merosi va bugungi kundagi qadri-qimmatini xususida fikr yuritildi.

Tadbir ishtirokchilari Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo'ydi.

Sanaga bag'ishlangan tadbir muhtasham San'at saroyida konsert dasturi va mushoira kechasi bilan davom etdi. Shoirlar va talaba-yoshlar Alisher Navoiy g'azallaridan namunalari o'qidi. Viloyat musiqali drama teatri san'atkorlari "Alisher Navoiy" spektaklidan parchalar namoyish etdi. Buyuk shoir g'azallariga asosida yaratilgan kuy-qo'shiqlar kuylandi.






Image not found or type unknown







Image not found or type unknown

